O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYODAGI TURKIY TILLI DAVLATLAR BILAN IQTISODIY ALOQALARI (1991-2017-YILLAR)

Mamatov Behruz Salimboy o‘g‘li
Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida (1991–2017) Markaziy Osiyodagi turkiy tilli davlatlar bilan yo‘lga qo‘ygan iqtisodiy aloqalari tarixi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda mintaqaviy hamkorlik, savdo-iqtisodiy munosabatlar dinamikasi, transport-kommunikatsiya loyihalari hamda o‘zaro tovar aylanmasining o‘sish tendensiyalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ko‘rilayotgan davr oralig‘ida integratsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatgan omillar va erishilgan natijalar ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, turkiy tilli davlatlar, iqtisodiy hamkorlik, tashqi savdo, integratsiya, mustaqillik davri, transport yo‘laklari.



Kirish

O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkmaniston bilan yaxshi hamkorlik aloqalarini, iqtisodiy kelishuvlarni amalga oshirdi. Bu kelishuvlar va bitimlar strategik ahamiyatga ega bo‘lib, iqtisodiy savdo va biznes rivojlanishi uchun chegara xizmatlari, boj, transport-logistika, tabiiy va energiya resurslari borasida o‘zaro bahamjihat hamda uzoqni ko‘zlab ish yuritishni talab qilardi.

Asosiy qism

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 23-noyabrda o‘rnatilgan [1]. Ikkala suveren davlat ham mintaqaviy sheriklik kun tartibini izchil yo‘lga qo‘ygan holda har bir mamlakat mintaqa iqtisodiy rivojlanishi uchun yangi markaz sifatida shakllannib keldi.

1994-yilning 16-yanvarida esa Qirg‘iziston Respublikasi O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida imzolangan yagona iqtisodiy makonni yaratish haqidagi shartnomaga qo‘shildi. Olmaota shahrida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida yagona iqtisodiy makon yaratish to‘g‘risidagi shartnoma imzolanishi Markaziy Osiyo davlatlari uchun

muhim qadam bo‘ldi. Yagona iqtisodiy makon xususidagi shartnoma tovar-mol, har xil xizmatlar, mablag‘ va ishchi kuchlarining shartnoma ishtirokchisi bo‘lgan davlatlar hududida erkin bo‘lishini, bu davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishilgan hisob-kitob, kredit, budjet, soliq, narx, bojxona va valyuta siyosatini ta’minlaydi [2]. Ana shu shartnomaga ko‘ra O‘zbekiston, Qirgiziston va Qozog‘iston Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsiya jarayonlarini yanada kengaytirish uchun huquqiy asoslar yaratish borasida faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Ushbu shartnoma natijasida Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamdo‘stligi tashkil etildi [3].



1995-yil 24-aprelda bu qardosh mamlakatlar Bosh vazirlari kengashi majlisida iqtisodiy integratsiyaning 2000-yilgacha bo‘lgan dasturi qabul qilindi. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston davlat rahbarlarining uchrashuvida esa yagona iqtisodiy makonni yaratishning 1996 – 1998-yillarga mo‘ljallangan harakat dasturi ma’qullandi. Ushbu dastur erkin savdo haqidagi, sarmoyalarni o‘zaro himoyalash haqidagi, foyda va mulkdan ikki yoqlama soliq olmaslik haqidagi, yagona ilmiy-texnik hudud haqidagi bitimlar imzolanishini nazarda tutadi. Bu yagona iqtisodiy makonni yaratish shartnomasiga imzo chekkan Markaziy Osiyo davlatlarining qonunchiligini muvofiqlashtirishda muhim o‘rin tutdi [4].

1996-yilning 24-dekabrida O‘zbekiston va Qirg‘iziston Respublikalari o‘rtasida “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida”gi shartnoma qabul qilinadi [5]. 1997-yilning 27-martida Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti mamlakatning “Ozarboyjon Respublikasi, Gruziya, Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida tranzit tashishni tartibga solish sohasidagi hamkorlik bo‘yicha Saraxs Bitimiga qo‘shilishi haqida” gi Qonunni imzolaydi. Buning natijasida Qirg‘iziston mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlabgina qolmay, tashqi savdo aloqalarini kengaytirish imkoniyatiga ham ega bo‘ldi.

1998-yilning 31-oktyabrida O‘zbekiston Qozog‘iston Respublikasi bilan “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida” shartnoma imzolaydi. Shartnomaga asosan endilikda ikki mamlakat “tovarlar, xizmatlar va kapitalning erkin ko‘chishiga asta-sekin o‘tish uchun zarur huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy va savdo shart-sharoitlarni yaratishga kirishadilar” [6]. Bundan tashqari ikki davlat rahbarlari: I.Karimov va N.Nazarboyevlar O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida

1998 – 2005-yillarda iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi Shartnomani ham imzolashga muvaffaq bo‘ldi [7]. Umuman olganda, bu davrda Qozog‘iston O‘zbekiston bilan o‘zaro savdo aloqalari hajmi jihatidan MDH davlatlari orasida eng oldingi o‘rinlarda turganligi hamda savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirish va takomillashtirishdan manfaatdor ekanligi namayon bo‘ladi.

O‘zbekiston Turkiy kengashga a’zo bo‘lgan Qozog‘iston, Qirg‘iziston bilan, kuzatuvchi bo‘lgan Turkmaniston bilan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT), Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT), Islom hamkorlik tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH), Jahon Savdo Tashkiloti (JST) kabi xalqaro iqtisodiy tuzilmalar doirasida ham a’zo, ham kuzatuvchi davlat sifatida o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirib bordi.



2017-yilning 5-sentyabrida Bishkek shahrida “O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Qirg‘iziston Respublikasi hukumati o‘rtasida mintaqalararo hamkorlik to‘g‘risida” Bitim [8] imzolandi. Ushbu bitimning 4-moddasiga ko‘ra, “vakolatli organlar mintaqalarning korxona va tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli savdo va ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirishga ko‘maklashadilar”. Shu tariqa O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy tamoyili yanada mustahkamlanib bordi.

Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha iqtisodiy islohotlar va amalga oshirilgan kelishuvlar yildan-yilga ijobiy natijalarni qayd qilib borayotganligi dunyo miqyosida ham tan olinmoqda. Jumladan, Savdo va transport tashuvlari sohasida logistika samaradorligi bo‘yicha butun jahon indeksi hisobotida Markaziy Osiyodagi turkiy davlatlar ichida Qozog‘iston 2010 va 2016-yillarda eng yuqori natijani egallagan bo‘lsa, O‘zbekiston 2018-yilga kelib Qozog‘iston bilan bir xil ko‘rsatkich qayd etib 2.5 shkalada, Qirg‘iziston 2018-yilda oldingi yillarga qarganda yuqoriroq 2.4 shkalada baholandi [9].

Markaziy Osiyo hamda turkiy dunyo mintaqaviy hamkorligida Turkmanistonning geoiqtisodiy ro‘li alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Turkmaniston Respublikasi bilan tashqi iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash pozitsiyasidan bordi. Dastlabki qadam 1991-yil 19 – 21-aprel kunlari O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov boshchiligida davlat delegatsiyasining Turkmanistonda bo‘lib, ikki respublika o‘rtasida

do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida Shartnoma hamda respublikalar hukumatlari o‘rtasida 1992 – 1995-yillarda mintaqada iqtisodiy tashqi siyosatni belgilashida muhim o‘rin tutuvchi ishonchli hamkorlikning huquqiy negizi yaratilishi bilan tashlangan edi [10]. Ikki qo‘shni turkiy davlatlar iqtisodiy hamkorlikning yaratilishida birinchi navbatda savdo, bojxona, transport yo‘llari va energetika tizimini rivojlantirishga kuchli e’tibor beradi. Bu borada bir qator bitim va kelishuvlarga erishiladi.

Jumladan, O‘zbekiston va Turkmaniston hukumatlari o‘rtasida 1993-yil 14-aprelda “Transport va aloqa doirasidagi munosabatlarning asosiy tamoyillari to‘g‘risida”, 1993-yil 28-avgustda “Bojxona munosabatlari asosi to‘g‘risida” va 1993-yil 11-oktyabrda elektr va pochta aloqalari to‘g‘risida bitimlarning imzolanishi davlatlararo hamkorlikning huquqiy asosi sifatida amaliyotda o‘z aksini topdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikasi o‘rtasida 1997-yilda tuzilgan “Mahsulotlar va xizmatlarni yetkazib berish bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi 5 banddan iborat bitimning 2-moddasiga [11] asosan, ko‘rsatilgan davrda O‘zbekiston tomoni Turkmaniston tomoniga 9,9834 million AQSh dollari qiymatidagi mahsulotlar, Turkmaniston tomoni esa O‘zbekiston tomoniga 2,975 million AQSh dollari qiymatidagi mahsulotlar yetkazib berishiga kelishiladi. 1997-yil 3-aprelda Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida Savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston-Turkmaniston qo‘shma komissiyasining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi [12]. Unda asosan elektr ta’minoti, transport yo‘li va yuk tashish kabi iqtisodiy masalalar ko‘rilgan.

Ikki qo‘shni turkiy davlat o‘rtasida do‘stlik aloqalarni mustahkamlash uchun tuzilgan shartnomalar esa iqtisodiy sohada ham o‘zgarishlar yuz berishida huquqiy yechim bo‘ldi. Ya’ni, 1996-yil 16-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risida”, 2004-yil 19-noyabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o‘rtasida do‘stlik, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida” hamda 2007-yil 18-oktyabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o‘rtasida Do‘stona munosabatlar va har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash to‘g‘risida”gi davlatlararo shartnomalar o‘zaro hamkorlik aloqalarining yuqori darajaga ko‘tarilganligini

ko‘rsatdi [13].

Markaziy Osiyo mintaqasi O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, ochiq iqtisodiyotni rivojlantirish, savdo, investitsiya va transportni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha strategik rejalarni amalga oshirishda alohida o‘rin tutadi. Savdo-iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishiga yuqori darajadagi rasmiy aloqalarning faollashuvi, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hukumatlararo komissiyalarning faolligi, mintaqa mamlakatlarining chegara va boshqa hududlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar, savdo ko‘rgazmalari va biznes-forumlar o‘tkazish amaliyotining kengayishiga yordam berdi.



2017 – 2018-yillarda taxminan 8 ta biznes-forum (Qozog‘iston – 3, Tojikiston – 2, Qirg‘iziston – 2, Turkmaniston – 1) bo‘lib, ular bo‘yicha qariyb 2 milliard dollarlik shartnomalar imzolandi. Ko‘rilayotgan choralar mintaqa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishda aniq natijalar berdi. Ya’ni, 2018-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo hajmi 12,2 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2017-yildagi ko‘rsatkichdan 35% ko‘pdir [14]. Investitsion hamkorlik aloqalarining faollashishi qator qo‘shma investitsiya loyihalarining amalga oshirilishida tayanch vazifasini o‘tadi.

Shu tariqa, mustaqillikka erishgan O‘zbekiston oldida mamlakatning savdo-iqtisodiy munosabalarini yo‘lga qo‘yish, xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish orqali erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tishni hayotga jadal tadbiq qilish vazifasi turar edi. Bunda birinchi navbatda kelib chiqish etnik turk xalqlaridan iborat bo‘lgan qo‘shni (Tojikiston va Afg‘onistondan tashqari) Markaziy Osiyo davlatlari bilan tranzit, bojxona va savdo imkoniyatlarini kengaytirish uchun hamkorlik aloqalarini mustahkamlagan holda o‘zaro manfaatli kelishuvlarga erishish asosiy maqsadga aylandi. Bunda ushbu davlatlar bilan “turkiy birlik” g‘oyasi asosida iqtisodiy hamkorlik qilish 2019-yilgacha faol bo‘lmagan bo‘lsa-da, 2019-yilda TDT a’zoligiga O‘zbekistonning qabul qilinishi bilan turkiy dunyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorligi harakatdagi tushunchaga aylandi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. Халикова Р.Э. Казахтан-Узбекистан интеграция в мировое сотрудничество в сфере образования и инноваций // Сборник материалов XII Международной научно-

практической конференции “Казахстан – Узбекистан новые горизонты”. – Актобе, 2024. – С. 350 – 353.

2. “Халқ сўзи” газетаси. №12. 1994 йил 18 январь.

3. Тобакалов Ч.Б. Международные отношения Кыргызстана и Узбекистана в системе Центральноазиатской интеграции (1991 – 2006 гг.) // Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice. Т. 11. №3, 2025. – С. 566 – 570.

4. Амирқул Карим. Тарих, тақдир ва истиқбол бирлиги // “Халқ сўзи” газетаси. №259. 1996 йил 24 декабр.

5. “Халқ сўзи” газетаси. №260. 1996 йил 25 декабр.

6. O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida” Shartnoma / https://lex.uz/docs/-2553833. Murojaat qilingan sana 02.03.2026.

7. Ўзбекистон-Қозоғистон: Абадий дўстлик ва ҳамкорлик йўлидан // “Ўзбекистон овози” газетаси. №131. 1998 йил 3 ноябр.

8. Ўзбекистон тарихи (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). VII жилд (Ўзбекистон тарихи ва манбалари). Таҳрир ҳайъати раиси: А.Аскаров. – Тошкент: Маънавият, 2022. 531 – 535-бетлар.

9. Такаши Ямано, Хэл Хилл, Эдимон Гинтинг и Джиндра Самсон. Кыргызская Республика. Улучшение потенциала роста. Asian Development Bank, 2020. – С. 142.

10. O‘zMA. M-37-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 81-yig‘majild. 16 – 19-varaqlar.

11. O‘zMA. M-115-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 10-yig‘majild. 36-varaq.

12. O‘zMA. M-115-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 10-yig‘majild. 36-varaq.

13. Мирзаев Ғ.Р. Ўзбекистон Республикаси ва Туркманистон ҳамкорлик алоқаларининг шаклланиш ва ривожланиш тарихи. – Тарих фанлари бўйича фалс.докт. (PhD) дис... автореф. – Тошкент: 2018. 12 – 13-бетлар.

14. Ўзбекистон дипломатияси тарихи (қадимги замонлардан ҳозирги кунгача). 6-жилд. Масъул муҳаррир Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазири А.Х.Камилов. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. 383-бет.